



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___ *-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
musiqa fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yiliga 7-sinflar
bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun

“ISTE'DOD”

TO'GARAK
HUJJATLARI

To'garak a'zolari haqida ma'lumot

№	Familiya ismi va sharifi	Tug'ilgan sanasi	Sinfi	Manzili (to'liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona _____

“TASDIQLAYMAN”

MMIBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yilida bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun tuzilgan
“Iste’dod” nomli to‘garagining
ISH REJASI**

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1	Surxondaryo – Qashqadaryo dostonchilik an‘analari	1		
2	Buxoro - Samarqand musiqa uslubi haqida tushuncha	1		
3	Sozanda san‘ati	1		
4	Takrorlash	1		
5	Katta ashula ya yallachilik san‘ati	1		
6	Takrorlash	1		
7	Xorazm musiqa uslubi haqida tushuncha	1		
8	Takrorlash	1		
9	Xorazm ashulachilik san‘ati	1		
10	“Suvora”laming mashhur ijrochilari	1		
11	Maqom tushunchasi shashmaqom	1		
12	Takrorlash	1		
13	Shashmaqom an‘anasi	1		
14	Takrorlash	1		
15	Komiljon otaniyozov haqida	1		
16	Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari	1		
17	Jahon musiqa madaniyati haqida	1		
18	Takrorlash	1		
19	Sharq allomalamni musiqa haqida	1		
20	Takrorlash	1		
21	Vena klassik maktabi namoyandalari	1		
22	Vena klassik maktabi namoyandalari	1		
23	XIX - XX Asrlar musiqa madaniyati. musiqadaimpressionizm	1		
24	Takrorlash	1		
25	Yunus Rajabiy	1		
26	O‘zbek musiqasida kompozitorlik ijodiyoti	1		
27	Takrorlash	1		
28	Zamonaviy o‘zbek musiqa madaniyati haqida	1		
29	Takrorlash	1		
30	Atoqli o‘zbek san‘atkorlari	1		
31	“Dutorchiqizlar” ansambli haqida	1		
32	O‘zbek musiqa san‘atining jahon sahnasiga chiqishi	1		
33	Takrorlash	1		
34	M. I. Glinka “ Kamarinskaya”			

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinflar: _____ To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Surxondaryo – Qashqadaryo dostonchilik an‘analari

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta‘limiy: o‘quvchilarda musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalari bilan birga musiqa savodi, ritm tuyg‘usi, musiqa asarini tinglash, qo‘shiqlar kuylash orqali o‘quvchilarda musiqiy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish. Ijodiy mahorat nafosat va badiiy didni o‘stirish, fikr doirasini kengaytirish, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalash.

Tarbiyaviy: Surxondaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent musiqa uslublari, Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarini o‘zlashtirish, jahon musiqa madaniyati, zamonaviy O‘zbekiston musiqa san‘ati va musiqa ijodiyotining mumtoz olari bilan tanishtirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarda mumtoz musiqaning yuksak durdonalari bo‘lmish maqom haqida tushuncha berish, o‘zbek milliy an‘ana va qadriyatlariga qiziqish uyg‘otish, mavzuni yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlarini nazorat qilish, musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish. Internet-saytlardan musiqaga oid ma‘lumotlarni topa olish va ularni tahlil qila bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o‘shish sur‘atlarini bilish, Shashmaqom tarkibidagi maqomlar sonini bilish.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Doston adabiy-musiqiy asardir. Uning tarkibida nasriy va she‘riy ohang qismlari bo‘lib, ular mazmunan o‘zaro mushtarak bo‘ladi.

Surxondaryo — Qashqadaryo doston ijrochilarini shoir yoki baxshi deb yuritadilar. Baxshilar san‘atida so‘z ustasi, qo‘shiq kuylovchisi va soz (docmbira) cholg‘uchisi birlashgan bo‘ladi. Binobarin, baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini mahorat bilan badiiy so‘zlab hikoya etsalar, she‘riy qo‘shiq shaklida maxsus ichki (“bo‘liq”) ovoz bilan kuylaydilar va bunda do‘mbira sozidan jo‘mavoz sifatida foydalanadilar. Dostonlarni ijro etish mavsumi asosan kech kuzda, qishloq ahli dehqonchilik bilan bog‘liq yig‘im-terim ishlarini tugatgandan so‘ng boshlanib, to erta bahorga qadar davom etadi. Odatda, baxshilar mahalliy aholi tomonidan maxsus uyushtirilgan dostonchilik kechalarini o‘tkazish uchun qishloq xonadonlaridan biriga taklif etilgan. Bu xonadonga mahalla ahli, qo‘ni-qo‘shnilar ham yig‘ilishib, baxshining doston ijrolarini tinglashgan. Bunday kechalar bir necha kungacha davom etishi mumkin bo‘lgan. Bundan tashqari, baxshilarni oilaviy bayram, to‘y marosimlari va boshqa tantanalarni o‘tkazishga ham taJdif etganlar. Dostonlarni kuylash tartib-qoidalariga koca, awalo, termalar aytiladi. Terma biror bir doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanadigan aytim bo‘lib, bunda baxshi o‘z bisotida bor dostonlarni qisqacha ta‘riflaydi va shu tariqa tinglovchilarga qarata “Qay dostondin aytayin”, deb murojaat etadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Surxondaryo — Qashqadaryo musiqa uslubi haqida gapiring.

2. Surxondaryo — Qashqadaryo an‘anaviy musiqa cholg‘ularini aytib bering.

V. Mashg‘ulotni yakunlash: to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinflar: _____ To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Buxoro - Samarqand musiqa uslubi haqida tushuncha

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta‘limiy: o‘quvchilarda musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalari bilan birga musiqa savodi, ritm tuyg‘usi, musiqa asarini tinglash, qo‘shiqlar kuylash orqali o‘quvchilarda musiqiy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish. Ijodiy mahorat nafosat va badiiy didni o‘stirish, fikr doirasini kengaytirish, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalash.

Tarbiyaviy: Surxondaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent musiqa uslublari, Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarini o‘zlashtirish, jahon musiqa madaniyati, zamonaviy O‘zbekiston musiqa san‘ati va musiqa ijodiyotining mumtoz olari bilan tanishtirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarda mumtoz musiqaning yuksak durdonalari bo‘lmish maqom haqida tushuncha berish, o‘zbek milliy an‘ana va qadriyatlariga qiziqish uyg‘otish, mavzuni yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlarini nazorat qilish, musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

bilimini mustaqil ravishda oshirib borish; o‘zining qiziqishlariga ko‘ra qobiliyatlarini namoyon qila olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

sog‘lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan urf-odatlar, marosimlarni bilish.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Buxoro — Samarqand musiqa uslubi deganda, Buxoro va Samarqand shaharlari va viloyatlari hududlarida qaror topgan musiqiy an‘analar tushuniladi. Diyorimizning qadimiy madaniyat maskanlari bo‘lmish bu vohalarda xalq qo‘shiqlari, ashulalari, cholg‘u kuylari, qarsak o‘yin — aytimlari hamda kasbiy musiqaga doir dostonchilik, sozanda san‘ati va maqom namunalari keng o‘rin tutadi.

Mazkur uslubning o‘ziga xos jihatlaridan biri — ikki tillilik, ya‘ni o‘zbek va tojik tillari an‘anasining namoyon bo‘lishidir. Bu holat ushbu sarhadda yashab, faoliyat ko‘rsatgan ko‘pgina shoirlar, jumladan, Mujrim Obid, Abdullo Mulham Buxoriy, Fitrat Zardo‘zi Samarqandiy, Muznib Shavkatiy Kattaqo‘rg‘oniyalar ijodida, shuningdek, ikki tilda ijro etib kelinayotgan o‘zbek va tojik xalqlarining yuksak mumtoz musiqa namunasi bo‘lgan Shashmaqom (Buxoro maqomlari) turkumida o‘z aksini topgan. Ikki tillilik an‘anasi xalq musiqasida o‘zgacha shakllarda aks etadi. Chunonchi, ayrim xalq qo‘shiqlarini ayni vaqtning o‘zida ham o‘zbek, ham tojik tillarida kuylash mumkin. Odatda, qo‘shiqning bandlari o‘zbek tilida, naqarotlari esa tojik tilida, ba‘zan aksincha ham bo‘ladi. Bundan tashqari, ayrim xalq qo‘shiqlarini o‘zbek yoki tojik tillarida kuylash imkoni mavjuddir. Shuningdek, faqat bir tilda— yo o‘zbek, yo tojik tilida kuylash uchun ijod etilgan xalq qo‘shiqlari ham uchraydi.

Xalq kundalik turmush tarzida, bayram-u to‘y-tomoshalarida musiqa muhim o‘rin tutib keladi. Jumladan, bahor mavsumi bilan bog‘liq “Guli surx” xalq marosimi tantanalarida qo‘shiqlar aytilgan, “Qayroq o‘yin”, “Zang o‘yin” kabi buxorocho raqslarga tushilgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Buxoro — Samarqand musiqa uslubiga qisqacha tushuncha bering.

2. “Tinchlik bo‘lsin” qo‘shig‘ida qanday g‘oya aks etgan?

V. Mashg‘ulotni yakunlash: to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__ yil

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinflar: _____ To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Sozanda san‘ati

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta‘limiy: o‘quvchilarda musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalari bilan birga musiqa savodi, ritm tuyg‘usi, musiqa asarini tinglash, qo‘shiqlar kuylash orqali o‘quvchilarda musiqiy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish. Ijodiy mahorat nafosat va badiiy didni o‘stirish, fikr doirasini kengaytirish, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalash.

Tarbiyaviy: Surxondaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent musiqa uslublari, Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarini o‘zlashtirish, jahon musiqa madaniyati, zamonaviy O‘zbekiston musiqa san‘ati va musiqa ijodiyotining mumtoz olari bilan tanishtirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarda mumtoz musiqaning yuksak durdonalari bo‘lmish maqom haqida tushuncha berish, o‘zbek milliy an‘ana va qadriyatlariga qiziqish uyg‘otish, mavzuni yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlarini nazorat qilish, musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish. Internet-saytlardan musiqaga oid ma‘lumotlarni topa olish va ularni tahlil qila bilish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

bilimini mustaqil ravishda oshirib borish; o‘zining qiziqishlariga ko‘ra qobiliyatlarini namoyon qila olish.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism:

a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash:

a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Buxoro Samarqand musiqa uslubida sozandachilik san‘ati ham shakllangan bo‘lib, u ayollar ijodi bilan bog‘liqdir. Sozanda — bu yakkaxon aytimchi bo‘lib, u qo‘lida qayroq yoki zang (qo‘ng‘iroqcha) ushlab raqsga tushadi hamda qo‘shiq bandlarini kuylaydi. Ikki-uch ayoldan iborat doirachllar dastasi esa naqarolar bilan jo‘r bo‘lib turadi. Demak, sozanda dastasi (ansambli)da jami uch-to‘rt ayol — yakkaxon sozanda, doirachi, naqarotchi qatnashadi. An‘anaga ko‘ra, sozanda dastalari o‘z san‘atini faqat xotin-qizlar davrasida o‘kaziladigan yig‘in, to‘ey va turli bayramlarda namoyish etadi. Ularning repertuari o‘zbek va tojik tilida bo‘lgan ko‘p qismlari o‘yin-aytim turkumlaridan iborat bo‘ladi.

Shuningdek, aytim qo‘shiqdami ham o‘zbek, ham tojik tillarida kuylash an‘anasi mavjud.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Buxoro sozanda ansambli kimlar ishtiroketadi?

2. Buxoro — Samarqand musiqa uslubiga xos so‘z (atama)larni toping.

V. Mashg‘ulotni yakunlash: to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.



veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-00-68 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan nza4567 izlab telegramga murojaat qilishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant doc formatda beriladi.


40 listdan iborat bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga musiqa fanidan 7-sinf o'quvchilarga 34 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11. O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12. Psixolog hujjatlari**
- 13. Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15. Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**